TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 24-oktabr 332-10-150-Q/24 Chirchiq shahar hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020-yil, 03/20/642/1396-son; 02.04.2021-yil, 03/21/681/0264-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-yil, 03/21/683/0375-son; 14.03.2022-yil, 03/22/759/0213-son) 39-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunining (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2020-yil, 03/20/641/1389-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-yil, 03/21/683/0375- son) 43- moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-401-son qarori O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida nizomga asosan shaharda 2025-yil uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash maqsadida, **qaror qilaman:**

1.O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 39-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynaladigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun shahardagi korxona, tashkilot va

muassasalar uchun xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha sonidan 7 foizidan ortiqni tashkil etmagan miqdorida 217 kishini tashkil etadigan, shu jumladan:

- o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek, ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun 9,2 foiz (20 kishi);

-umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar hamda “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 65,4 foiz (142 kishi);

-O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyaning, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 7,3 foiz (16 kishi);

-nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 7,3 foiz (16 kishi), shundan nogironligi bo‘lgan shaxslar 12 kishi;

-jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun 9,2 foiz (20 kishi);

-Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlanganlar uchun 1,3 foiz (3 kishi) miqdorda ish o‘rinlari zaxirasi belgilansin.

2. Chirchiq shahri bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun 2025-yilga kvotalangan ish joylarining miqdori belgilangan korxona va tashkilot ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari tomonidan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2024-yil 20-dekabr kuniga qadar kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2025-yilning 1-aprelidan kechikmagan holda ish joylarining qolgan qismi 75 foizini (ajratish yoki band qilib qo‘yish) barpo etish, har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va qaror bo‘yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-sentabrdagi 263-son qarorining ilovasi bilan tasdiqlangan ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob uskunalarning jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 6-bandiga asosan korxona, tashkilot va muassasalarda nogironligi bo‘lgan shaxslar band bo‘lgan barcha ish o‘rinlari va kasblar attestatsiyadan o‘tkazilishi kerakligi belgilanganligi qayd qilinsin.

5. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida nizomga muvofiq ish joylari sanitariya gigiyena normalariga va xodim o‘z majburiyatlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasinlar.

6. Ushbu qaror bajarilmaganda, shuningdek, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot, korxona va muassasalarning mansabdor shaxslariga nisbatan qonunchilik hujjatlariga ma’muriy javobgarlik qo‘llanishi haqida ogohlantirilsin.

7. Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan korxona, tashkilotlarga O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomiga asosan (ro‘yxat raqami 3163, 2019-yil 31-may) belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya ajratilishi ta’minlansin.

8. Shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (B.Dalimov) bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin.

9. Chirchiq shahar hokimining 2023-yil 1-noyabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish

uchun ish o‘rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi 440-10-150-Q/23-son qarori 2024-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari J.Raxmonov zimmasiga yuklatilsin.

Chirchiq shahar hokimi v.b **M.Abduraximov**

Chirchiq shahar hokimining
2024-yil 24-oktabrdagi
332-10-150-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Chirchiq shahrida 2025-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band (kvota) qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlari to‘g‘risida MA’LUMOT

T/R	Ish o‘rnini zaxiralashi belgilangan korxona tashkilot nomi	Korxona tashkilot STIR (STIR aniq bo‘lishi shart)	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlar soni	Jami zaxiralanishi belgilangan ish o‘rinlarining soni	Shundan:						
					14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb- hunar maktablarini, kasb- hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun	Muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun	Nogironligi bo‘lgan fuqarolar uchun	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni o‘tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun	Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlanganlar uchun
1	“MAXAM-CHIRCHIQ” AJ	200941518	5828	23	2	8	5	2	1	4	1

2	O‘zbekistontexnologiikmetallarkambinati	311415425	1200	311415425	1200	11	1	4	2	1	0	2	1
3	“CHIRCHIQ TRANSFORMATOR ZAVODI” AJ	200941525	1125	6	0	2	1	0	0	2	1	
4	“UZKIMYOSANOATLOYIHA” AJ	200941533	171	2	0	2	0	0	0	0	0	

5	“CHIRCHIQ ASFALT BETON SERVIS” MCHJ	300827686	23	2	0	0	0	0	0	2	0
6	“CHIRCHIQ QURULICH MATERIALLARI va KONSTRUKSIYASI“ MCHJ	200941636	35	2	0	1	0	0	0	1	0
7	“ CHIRCHIQ TAJRIBAVIY ASFALT BETON ZAVODI” MCHJ	200941723	52	2	0	0	0	0	0	2	0
8	“ORZU-TEKS” MCHJ	206502916	410	6	1	2	1	1	0	1	0
9	“UZTEX GROUP” MCHJ	204651661	6996	12	1	6	4	1	0	0	0
10	“LUKBO TEKSTIL” MCHJ	207092003	661	4	1	3	0	0	0	0	0
11	“ALKIM TEKSTIL” MCHJ	204681499	200	3	1	2	0	0	0	0	0
12	“AHMAD-TEX-GROUP” MCHJ	305794077	136	3	0	2	1	0	0	0	0
13	“COMPACT TEXTILES YARN” MCHJ	303942384	424	2	0	2	0	0	0	0	0
14	“Issiqlik energiyasi” UK	206982494	270	4	1	1	0	0	0	2	0
15	Chirchiq shahar Obodonlashtirish boshqarmasi	204052085	256	4	0	0	0	1	0	3	0
16	Chirchiq shahar Tibbiyot birlashmasi	200946296	694	10	1	5	1	1	1	1	0

17	1-sonli oilaviy poliklinika	207219428	206,25	2	0	2	0	0	0	0	0
18	2-sonli oilaviy poliklinika	207219404	170,5	2	0	2	0	0	0	0	0
19	3-sonli oilaviy poliklinika	207219411	202	2	0	2	0	0	0	0	0
20	Toshkent viloyati Qon quyish stansiyasi	200946272	63	2	0	2	0	0	0	0	0
21	Toshkent viloyati Bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi	203369664	631	4	1	2	0	1	0	0	0
22	Viloyat “Perenatal markazi”	203108497	459	4	1	2	0	0	1	0	0
23	Toshkent viloyati Yuqumli kasalliklar shifoxonasi	203108505	189	3	0	2	0	0	1	0	0
24	Toshkent viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi	206983248	158	3	1	2	0	0	0	0	0
25	Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti	207258862	1533	5	1	4	0	0	0	0	0
26	O‘zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya va sport universiteti	200541019	1012	8	1	5	1	1	0	0	0
27	Chirchiq Olimpiya zahiralari kolleji	200946067	235	2	0	1	0	1	0	0	0
28	Bolalar va o‘smirlar sport maktabi	207114274	96	2	1	1	0	0	0	0	0

29	15-sonli bolalar musiqa maktabi	205082278	68	1	0	1	0	0	0	0	0
30	7-sonli bolalar musiqa maktabi	205102211	65	2	0	2	0	0	0	0	0
31	3-sonli bolalar musiqa maktabi	205160513	22	1	0	1	0	0	0	0	0
32	Chirchiq shahar “BARKAMOL AVLOD” bolalar markazi	207126053	60	2	0	2	0	0	0	0	0
33	Chirchiq shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	200946304	61	2	0	1	0	1	0	0	0
34	1- sonli umumta’lim maktabi		62	1	0	1	0	0	0	0	0
35	2- sonli umumta’lim maktabi	206900627	62,5	1	0	1	0	0	0	0	0
36	3- sonli umumta’lim maktabi	207293433	98	2	1	1	0	0	0	0	0
37	4- sonli umumta’lim maktabi	206900706	61	1	0	1	0	0	0	0	0
38	5- sonli umumta’lim maktabi	206805886	86	1	0	1	0	0	0	0	0
39	6- sonli umumta’lim maktabi	206905041	52	2	0	2	0	0	0	0	0
40	7- sonli umumta’lim maktabi	206900603	115	2	0	2	0	0	0	0	0

41	8- sonli umumta’lim maktabi	206900681	80	2	0	2	0	0	0	0	0
42	9- sonli umumta’lim maktabi	206900738	129	2	0	2	0	0	0	0	0
43	10- sonli umumta’lim maktabi	204891578	83	2	0	2	0	0	0	0	0
44	11- sonli umumta’lim maktabi	206900659	101	2	1	1	0	0	0	0	0
45	12- sonli umumta’lim maktabi	206900610	116	2	0	2	0	0	0	0	0
46	13- sonli umumta’lim maktabi	206116485	106	2	0	1	0	1	0	0	0
47	14- sonli umumta’lim maktabi	206900570	67	1	0	1	0	0	0	0	0
48	15- sonli umumta’lim maktabi	203502070	104	2	0	2	0	0	0	0	0
49	16- sonli umumta’lim maktabi	206900587	71	1	0	1	0	0	0	0	0
50	17- sonli umumta’lim maktabi	206900698	82	1	0	1	0	0	0	0	0
51	18- sonli umumta’lim maktabi	206900634	77	1	0	1	0	0	0	0	0
52	20- sonli umumta’lim maktabi	206900674	103	2	0	2	0	0	0	0	0

53	21- sonli umumta’lim maktabi	206900563	145	2	0	2	0	0	0	0	0
54	22- sonli umumta’lim maktabi	206900594	55	1	0	1	0	0	0	0	0
55	23-sonli Ixtisoslashtirilgan maktabi	206900642	85	2	1	1	0	0	0	0	0
56	24- sonli umumta’lim maktabi	206900745	108	2	0	2	0	0	0	0	0
57	25-sonli umumta’lim maktabi	206900666	146	2	0	2	0	0	0	0	0
58	26-sonli umumta’lim maktabi	206900714	74,75	2	0	2	0	0	0	0	0
59	1-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207030808	35	1	0	1	0	0	0	0	0
60	2-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207009958	54	1	0	1	0	0	0	0	0
61	3-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207216850	30	1	0	1	0	0	0	0	0
62	4-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207216867	54	1	0	1	0	0	0	0	0
63	5-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207030823	58	1	0	1	0	0	0	0	0
64	6-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207030830	24	1	0	1	0	0	0	0	0

65	7-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207030847	30	1	0	1	0	0	0	0	0
66	8-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207009965	80	2	0	2	0	0	0	0	0
67	9-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207014668	30	1	0	1	0	0	0	0	0
68	10-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207030919	33	1	0	1	0	0	0	0	0
69	12-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	310068645	25	1	0	1	0	0	0	0	0
70	11-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207014690	52	2	0	2	0	0	0	0	0
71	15-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207009973	46	1	0	1	0	0	0	0	0
72	17-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207009980	53	1	0	1	0	0	0	0	0
73	18-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207033953	38	2	1	1	0	0	0	0	0
74	20-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207030854	50	1	0	1	0	0	0	0	0
75	21-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207009997	35	1	0	1	0	0	0	0	0
76	22-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207010000	45	1	0	1	0	0	0	0	0

77	26-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207010017	55	1	0	1	0	0	0	0	0
78	27-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207014683	36	1	0	1	0	0	0	0	0
79	29-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207030862	29	1	0	1	0	0	0	0	0
80	30-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207030879	41	1	0	1	0	0	0	0	0
81	31-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207010024	61	1	0	1	0	0	0	0	0
82	32-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207010032	41	1	0	1	0	0	0	0	0
83	33-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207030886	33	1	0	1	0	0	0	0	0
84	34-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207010049	60	1	1	0	0	0	0	0	0
85	35-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207030894	28	1	0	1	0	0	0	0	0
86	36-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207030902	19	1	0	1	0	0	0	0	0
87	37-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207014708	53	1	0	1	0	0	0	0	0
88	39-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207010056	51	1	0	1	0	0	0	0	0

	JAMI		**27260**	217	20	142	16	12	4	20	3